O‘QUVCHI SHAXSI IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI

Yaxshiboyev Temur-Malik - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Yaxshiboyev Dildora - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Bugungi kunda ijodkorlik va shaxsning ijodiy xislatlarini shakllantirish masalasiga o‘z navbatida pedagoglar, psixologlar, filosoflar hamda sotsiologlar ham o‘z e’tiborini qaratmoqda. Har qanday normal o‘quvchini ijodkorlik qobiliyatni o‘stirish mumkinligi psixologlar tomonidan tasdiklangan.

Psixologiya-pedagogika fanlarining xulosasidan shu narsa ma’lumki, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini yoshlik davridanok rivojlantirish zarur. Pedagoglarning fikricha agarda o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish erta yoshdan boshlanmasa keyinchalik qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ijodkorlikka juda erta yoshdan bolalarni yo‘llash lozim.

Pedagogik tomondan ham ijodiy qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari aniqlangan. Umumiy holda ular uchun o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb kilish kerak.

Barchamizga ma’lumki o‘quvchilar mehnatining bosh maqsadi ta’lim jarayonida beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishdan iborat. An’anaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga axborotlarni berishdan iborat. Bunda o‘qituvchi tayyor bilimlarni va axborotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarga-passiv qabul qiluvchilarga uzatuvchi vazifasini bajaradi. O‘quvchi keyingi mashg‘ulotlarda tayyor holdagi bilimlarnigina yaxshi o‘zlashtiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchi shaxsining ijodkorlik qobiliyatining qirralarini faqat o‘quv faoliyati davomida shakllantirish mumkin desak xato qilgan bo‘lamiz. O‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘quvchi shaxsi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mumkin emas. Bevosita ijodkorlikning aniq turi bo‘yicha amaliy faoliyat lozim, ya’ni texnik, badiiy va boshkalar.

O‘quvchilarning texnik ijodkorligi – o‘quvchilarni ijodkorlikka jalb qilishning keng tarqalgan ommaviy shaklidir. O‘quvchilar texnik ijodkorligiga ikkita, ham pedagogik ham psixologik nuqtai nazardan qarash mumkin.

Pedagoglar o‘quvchilar texnik ijodkorligini turli xildagi texnika olami bilan tanishtirish, ularni qobiliyatlarini rivojlantiruvchi faoliyat sifatida qaraydi, balki ularni mehnatga tarbiyalash va politexnik ta’lim berishning samarali usullaridan bir sifatida qaraydi.

Psixologlar o‘quvchilar texnik ijodkorligida o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatining ma’lum turiga bo‘lgan qiziqish moyilliklarini shakllantirishga katta e’tibor qaratadi. Boshqacha aytganda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini boshqarishda psixologlar ijodiy qobiliyatini to‘g‘ri tashxis uslubidan foydalanadi, ya’ni o‘quvchilar qanday faoliyat turida va qanday sharoitda yanada o‘zini mahsuldor qilib ko‘rsata oladi.

O‘quvchilarni texnik tafakkurini va mehnatga ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqishni, mahsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Bu fanning asosiy maksadi va vazifasi bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchilarga umumiy o‘rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, sinfdan, maktabdan tashqari o‘quv muassasalarida o‘quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishning ilmiy metodik asoslarini o‘rgatishda iboratdir. Ular quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida texnik ijodkorligiga oid bilimlar tizimiga ega bo‘lishi;
- Texnik ijodkorlikning tashkiliy va iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish.
- Kashfiyot, ixtirochilik, ratsionalizatorlik va patentlash asoslari bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lish;
- Texnik masalalarni echish metod va usullaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- Texnik ijodkorlik obe'ktlari uchun texnik hujjatlarni tuzish;
- Mustaqil ravishda texnik obe'ktlarni va ularning modellarini loyihalay olish.
- Texnika bo‘yicha sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar uchun moslama, dastgoh va boshqa jihozlarni mustaqil loyihalay olish;
- O‘quvchilar texnik ijodkorligi faoliyatining hozirgi holati va uni takomillashtirish istiqbolini tushunish;
- O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishning asosiy metodlarini bilish;
- Texnik ijodkorlik to‘garaklari faoliyatining mazmuni, tashkiliy asoslari, texnik ob'ektlarni ilmiy asosda tanlay olish;
- O‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilishning asosiy metodlarini bilish;
- To‘garaklar o‘quv moddiy-texnik bazasini tashkil qila olish;
- Sinfdan va maktabdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarida texnik ijodkorlikni metodik asoslarini bilish;
- O‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga tegishli bo‘lgan oilaviy va ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni ilmiy asoslarini bilish kerak.

Texnologiya ta'limi jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengligi pedagog olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan ta'kidlab o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011

2. Boymatov, N. (2022). Pedagogical aspects of improving the content of corporate culture in the process of informatization of education. Science and Innovation, 7(8), 538-542. 3.

3. Abdufatayev, S. (2024). Fanlararo integratsiya-ta'limtarbiya jarayonining asosiy omili. News of UzMUjournal, 7(1.1. 1), 31-35